

## INSHO VA ESSE UCHUN MAVZU TANLASH BO'YICHA METODIK TAVSIYALAR

**Xayriddinova Mohina Jamshid qizi**

*ToshDO'TAU magistranti*

**Annotatsiya:** *Yozma nutq, og'zaki nutq, tushunarlilik, mavzuning aniqligi, mavzuni yosh doirasida tanlash, tanlangan mavzu barcha jihatlarini qamrab olishi, mustaqil ravishda mavzu tanlash.*

**Kalit so'zlar:** *Chegarasiz, sog'lom fikr, puxtalik, uslub, dolzarblik, salohiyat, tanqidiy munosabat, tahliliy munosabat.*

### METHODICAL RECOMMENDATIONS FOR CHOOSING A TOPIC FOR ESSAYS AND ESSAYS.

**Annotation:** *Written speech, oral speech, comprehensibility, clarity of the topic, choosing a topic within the range, choosing a topic that covers all aspects, choosing a topic independently.*

**Keywords:** *Boundless, common sense, thoroughness, style, relevance, potential, critical attitude, analytical attitude.*

Yozma nutq og'zaki nutqqa qaraganda ancha keng qamrovlidir. Unda fikrlash va tasvirlash chegaralanmagan. Insonlar biror bir mavzuda haqida soatlab gapirishlari mumkin. Nutqiy me'yorlarni chetga surgan holda nutq irod etishlari mumkin, albatta. Yozma nutqda esa kishi biroz o'ylagan holda, barcha qoidalarga amal qilgan holda yozadi. Vaqt va imkoniyat jihatdan yozma nutq o'zaki nutqqa qaraganda yuqoriroq turadi. Chunki yozish va o'ylash uchun ma'lum bir muddat vaqt ajratiladi. Bu vaqt davomida yozayotgan shaxs o'z fikrlarini bayon etib boradi.

Yozma nutq shakllari bir qancha turlari va shakllari mavjud. Maktab ta'limida asosan insho va esse kabi yozma ish turlarini yozish o'quvchilarga o'rgatiladi. Shubhasiz, o'quvchilar diktant va ijodiy bayon kabi turlarini ham o'rganadilar. Bularning bir-biridan farqi shundaki, insho va esse uchun berilgan mavzulardan tashqari, o'quvchining o'zi mustaqil ravishda mavzu tanlashi mumkin. Diktant va ijodiy bayon o'z-o'zidan oldin tanlangan mavzu asosida olinadi. Sinflar kesimi va o'quvchilarning yosh doirasiga qarab bu yozma ish turlari vazifa sifatida beriladi va baholanadi.

Yangilangan darsliklarda asosan o'quvchilarning insho va esse yozish bo'yicha ko'nikmalarinin yanada takomillashtirish ko'zda tutilgan. Quvonarli jihati shundaki, yangi 6-sinf darsligida esse yozish haqida ko'rsatmalar berilgan. Bu esa 6-sinf va undan yuqori bo'lgan sinflar endi bemalol esse yoza olishini ko'rsatadi. Albatta, bunda o'qituvchi o'z metodik tavsiyalarini ayamasligi kerak. O'quvchida shu bo'yicha tug'ilgan savollarni hech birini o'tkazib yubormaslik lozim. Chunki, keyichalik o'quvchida shu xatolik shakllanadi va

shunday yozadi. Darsliklarda asosan, o'quvchi uchun tayyor mavzular beriladi. Masalan, "Mening birichi ustozim" , "Ogohlik davr talabi", "Mahalla – kichik vatan" kabilar. O'quvchilar shu berilgan mavzu asosida fikrlarini bayon etadilar.

8-sinf darsligida insho haqida batafsil ma'lumot berilgan. Insho turlari, reja tuzish, epigraf tanlash kabilar. Albatta, mavzular ham har bir insho turiga qarab taqdim etilgan. Inshoning mazmun mohiyatiga ko'ra turlarida bu yaqqol seziladi. Adabiy turdagi insholarda adabiyot darsliklaridagi mavzular asos qilib olinadi. Bu esa o'z – o'zidan o'quvchining o'tilgan mavzu yuzasidan o'z fikrlarini bildirishga va shu fikrlarni mustahkamlashga imkon yaratadi. "G'afur G'ulom she'riyatida sog'inch" mavzusida yozilgan adabiy insho o'quvchidan yana bir bor shu darsdagi atmosferani his qilishiga yordam beradi. Bu insho turida istalgan adabiyot darsligidagi mavzularni tanlash mumkin. Asosan chorak o'rtasi va yakunida shunday insho o'quvchilardan olinadi. Chunki ijodkorning asari bilan tanishib chiqish va uni tushunish uchun ma'lum vaqt talab etiladi. O'quvchining ijodkor va uning asariga bo'lgan munosabati aynan shu jarayonda ko'rinadi. O'quvchi qahramonga o'z gaplarini aytadi. Agar she'r bo'lsa unda tasvirlangan voqelikni tushunganicha bayon qiladi. Aksariyat holda, ko'pgina o'quvchilar bu insho turida asardan parcha ko'chirib olishadi. Mustaqil fikr yozilmaydi. Baholash mezonida bu juda past baholanadi.

Erkin mavzudagi insho o'z- o'zidan erkin usulda tanlanadi. Turli xil yo'nalish, turli xil uslub bu insho turi uchun xosdir. Albatta, o'quvchining yosh jihati ham hisobga olinadi. Mavzularni quyidagicha tanlash mumkin:

"Hunar egasi bo'lish – sharafdir" (7- sinf )

"Sog'liq haqida qayg'uring !" (7 -sinf )

"Inson yuksak aql egasi" (8 – sinf )

"Kulgu dardlarga da'vo" ( 8 – sinf )

"Mustahkam iroda sohibi kim? " ( 9 – sinf)

"Hayotimni o'zgartirgan kun" ( 9 – sinf)

"Bilgan topib so'zlar, bilmagan qopib? " ( 10 – sinf)

"Mehrga o'lchov yo'q " ( 10 – sinf)

"Barakali kasblar ? " ( 9 – sinf)

"Ikkiyuzlamachilik – dilxiralik, soddalik - insoniylik" ( 9 – sinf)

(Izoh: 7 – sinf uchun berilgan mavzularda reja soddada tuziladi, 8 – 9 – 10- sinflar uchu murakkab reja tuziladi, epigraf tanlanishi mumkin)

Mavzular o'qituvchi tomonidan ixtiyoriy tanlanishi mumkin. O'quvchilarning shaxsiyati bilan yaqindan tanish bo'lgan o'qituvchi ularning qaysi mavzuda yoza olishlarini biladi. Har bir sinf uchun bunday jarayonni to'g'ri hosil qila oladi.

"Yozma nutqni rivojlantirish uchun tanlangan mashg'ulot mavzulari dars berilayotgan vaqt uchun dolzarb va o'quvchi uchun qiziq bo'lishi kerak. Shunday mavzu tanlanishi kerakki, bola o'sha haqida fikr bildirish istagi kuchli bo'lsin yoki mashhur serial bo'lsin. Mazkur masalalarga bo'lgan qiziqishdan bola kognitiv rivojlanishini ta'minlash uchun samarali foydalanishi mumkin" [Azimova,2020,215-224-bet]

Essega mavzu tanlash, uni yozish bugungi o'quv jarayonida yetalchilik qilmoqda. Qisqalik va tushunarlilik esse uchun xos bo'lgan jihatlar. Ma'lum bir miqdordan oshmagan holda biror mavzu yuzasidan o'zining tanqidiy va tahliliy munosabatlarini bildirgan o'quvchi essenini yoza oladi. Albatta, asosiy qism, xulosa bosqichlari ham mavjud. Esseda mavzu daolzarbligi yuqori pog'onada turadi. Tog'ri istalgan mavzu tanlanishi mumkin. Essening ham insho kabi turlari mavjud. Faqat insho shartli ravishda uch guruhga bo'linsa, esse yozilish maqsadiga ko'ra turlarga bo'linadi. Tanlangan mavzuga o'quvchi aniq fakt va dalillar keltirishi essening o'ziga xos jihatini belgilaydi. Mavzu boshidan to oxirigacha esseda yoritiladi. Fikr ilgari suriladi.

O'z – o'zidan essening ham qismlari mavjud. Kirish qismda o'quvchi asosan kalit so'zlardan foydalanadi. Asosiy qism aytilayotgan fikr kengroq ifoda etiladi. Xulosada esa, barchasi umumiyashtiriladi. Essega mavzu tanlayotganda sinchkovlik talab etiladi. Esse uchun mos bo'lgan bir qancha mavzularni ko'rib chiqamiz.

“ Saboq olgin o'quvchi !” (6 -sinf )

“ Polizdan to saturxongacha ” (6 – sinf )

“ Inson madadi – ilm ” ( 7 – sinf )

“ So'zni chertib so'zlang! “ ( 8 – sinf)

“ Sayyoralar – samo bezagi ” ( 8 – sinf)

“ Yolg'on baribir quvib yetadi “ ( 9 – sinf)

“ Xarita yaratganimda... ” ( 9 – sinf)

“ So'z achchig'i – jon achchig'i “ ( 10 – sinf)

“ Kino olamiga sayohat ” ( 10 – sinf)

“ Ishing bo'lsa puxta, darrov qo'yasan nuqta “ ( 11 – sinf)

“ Xudbinlikning yuki og'ir ” ( 11 – sinf)

( Izoh: esse uchun mavzular ixtiyoriy tanlanishi mumkin.Yuqoridagi mavzularning deyarli hammasi o'quvchilarga taqdim etilgan va natijalar e'lon qilingan.)

Yozma ish turlari uchun mavzu tanlashni o'quvchilar tomonidan ham amalga oshirish mumkin. Inshoning aynan ikkinchi turida shunday mashg'ulotni amalga oshirsa bo'ladi. O'qituvchi o'quvchi yozgan mahsulotni to'g'ri baholay olishi maqsadga muvofiq. Berilgan mavzu yuzasidan yaxshi fikr bera olgan o'quvchiga albatta ijobiy baho qo'yilishi kerak. Har bir ishdan so'zng izoh yozilishi kerak.

“O'qituvchining ko'zi tanqidiy bo'lishi mumkin va yozma mahsulotlarga rasmiy baho bersa, o'quvchilar o'zlarini noqulay his qilishadi” [Nunan,1991,262-bet].

David Nunan o'zining “Language teaching methodology” kitobida ham yozishning murakkab jarayon ekanligi, malakali burilish bo'la olishini aytadi.Biroz erkinlik o'quvchi uchun ham o'qituvchi uchun ham zarar qilmasligini ta'kidlaydi. Yozish bosqichidagi uch bosqichni sanab o'tadi va bu bosqichlarda o'qituvchining aralashuvi qanchalik muhim ekanligini ko'rsatib beradi. Aslida yozish jarayonini bosqichlarga bo'lish xato ekanligi, o'quvchilarni ko'p tanqid qilish bilan qanoatlanmaslik, aksincha ular bilan birgalikda

jarayonga kirishish, holatni tushunishlariga yordam berish o'qituvchining bosh vazfalaridan hisoblanadi.

Mavzu tanlash murakkab jarayon. Chunki, shu mavzu yuzasidan yozilgan fikr o'quvchi uchun bir umrlik xotira bo'lib qoladi. U shu yozganlari bo'yicha o'ylay boshlaydi, rejalar tuzadi. Masalan, " Mening bir oylik daromadim" mavzusida yozilgan esse uning qilmoqchi bo'lgan ishlarini belgilashiga yordam berish bilan birgalikda, o'zi tanlamoqchi bo'lgan kasb yoki hunarni ham tanlashiga zamin yaratadi. Asar qahramonlarining butun boshli tuzilishiga ta'rif berish esa, fikr teranligini oshiradi. Keyingi jarayonlarda o'quvchi o'z fikrini qo'rqmasdan ayta oladi. Aslida maqsad ham shunday. Ta'lim jarayonida o'quvchiga ortiqcha yuk yuklanmasdan, uning uchun kerakli bilimlar berilsa, ularning yozish ko'nikmalarini oshirish barobarida, mustaqil shaxs yetishib chiqadi.

#### **FOYDANALIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Azimova I. (2019). Lisoniy malakalarni rivojlantirishning psixolingvistik asoslari. Toshkent, O'zbekiston: Global ta'lim metodika.

2. unan D. 1991. Language teaching methodology. USA, Prentice Hall International English Language Teaching.

3. Esonova M.Q 2020. 5-sinf o'quvchilarida fikrni yozma bayon qilish malakasini shakllantirishning nazariy va metodik asoslari. Toshkent, O'zbekiston

4. Xayriddinova M.(2023).

<https://www.mendeley.com/reference-management/reference-managerdan> olindi.

5. Xayriddinova M.(2023). <http://diss.natlib.uz> dan olindi.

6. Rahman, R.M., Sarker, T.R. (2019). Teachers' Classroom Practice to Develop Student's English Writing Skills at Primary Level of Bangladesh. Pendidikan Journal, 8-9.